

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



**BIOLOGIK FANLARNI O'QITISHDA
MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI**

H.K. KARSHIBAEV

Biologiya fanlari doktori, professor

E-mail: hkarshibaev_53@mail.ru

Mustaqil ta'lim tushunchasi

- «Mustaqil ta'lim» tushunchasi “Pedagogika fanidan izohli lug'at” da “**olingan bilim, ko'nikma va malakani mustahkamlash, qo'shimcha materialni o'rganish maqsadidagi o'quv shakli**” deb qaraladi.
- Ayni vaqtda ilmiy va o'quv adabiyotlarda «Mustaqil ta'lim olish», «O'zini tarbiyalash», «Mustaqil o'qish» tushunchalaridan sinonimlar sifatida foydalanilmoqda.

Mustaqil ta'lim

- Mustaqil ta'lim turlari va toifalari didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi, kimga (individual yoki jamoa uchun) mo'ljallanganligiga qarab, bir-biridan farq qiladi.
- Uning nazariy, amaliy, ilmiy, metodik va pedagogik asoslari tahlil qilinsa, samarali shakllari va vositalari tanlansa, ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Mustaqil ta'lim

- Bunda o'tiladigan mavzuning amaliyot bilan uzviyligi, ilmiyligi va o'quv materiallarining qiziqarliligi, mavzularning tizimlilik, topshiriq hamda vazifalarning ko'p qirraliligi, o'zaro bog'liqligi muhim o'rin tutadi. Ammo eng asosiysi, talabalarning mustaqil ravishda ta'lim olish faoliyatini tashkil etishda ularning intilish va qiziqishlariga asosiy e'tiborni qaratish zarur.

Mustaqil ta'lim

- Mustaqil ta'limni ikki katta guruhga ajratish mumkin.

Birinchisi, o'quv rejasi va dasturiga kiritilgan, ta'limning u yoki bu bosqichida, egallanishi shart bo'lgan, sinf va auditoriyada dars shaklida o'qitiladigan fanlarning mazmunini o'rganish, **ikkinchisi**, o'quv rejasi va dasturidan o'rin olmagan, dars jarayonida o'rganilmaydigan, o'quvchining shaxsiy qiziqishi hamda hayotiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida egallanadigan bilimlar.

MUSTAQIL TA'LIMNING TASHKIL ETISHNING ME'YORIY ASOSLARI:

- Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2005 yil 25 – fevral №34 sonli buyrug'i
- Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 14 avgust № 86 sonli buyrug'i
- 2019 yil Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyaci
- Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024 yil 29 aprel 136-son buyrug'i

Mustaqil ta'lim:

mutaxassis yordamida yoki uning yordamisiz biror vazifa (masala, muammo) ni mustaqil o'rganish asosiga quriladigan o'quv faoliyati hisoblanadi.

Mustaqil ta'lim tamoyillari:

- ❖ Ta'lim oluvchi shaxsiga yo'naltirilganlik;
- ❖ Ta'lim jarayonini demokratlashtirish;
- ❖ Ta'lim jarayonini axborot - kommunikatsion texnologiyalar asosida tashkil etish;
- ❖ Ilm orqali bilim olish;
- ❖ O'quv materiallarini modullarga ajratib o'zlashtirish
- ❖ Bilimlarni o'zlashtirishda diferensiallashgan (tabaqalashgan) yondashuv.
- ❖ Mustaqil ishlash amaliy ko'nikma va malakalarini bosqichma- bosqich shakllantirish
- ❖ Talabaning mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilganligi.

Mustaqil ta'limning strukturası

- 1) Mustaqil ish
- 2) Mustaqil bilim olish
- 3) Ochiq va distant kurslarda shug'ullanish

Mustaqil ish -

Talim oluvchining fanlardan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini yana kengaytirishga va takomillashtirishga qaratilgan faoliyati turi.

Talaba mustaqil ishi (TMI)

- muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan, talaba tomonidan o'zlashtirish lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismi bo'lib, fan o'qituvchisi maslaxati va tavsiyalari asosida auditoriyada va auditoriyadan tashqarida bajariladigan tizimli faoliyatdir.

2009 yildagi Yo'riqnomada keltirilgan TMI turlari:

- ◎ fanga oid ayrim mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash
- ◎ amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish
- ◎ ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash
- ◎ kurs ishi va loyihalarni bajarish
- ◎ bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi uchun materiallar to'plash
- ◎ hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish
- ◎ maket, model va badiiy asarlar ustida ishlash
- ◎ amaliyotdagi mavjud muammoning echimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash
- ◎ ilmiy maqola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash
- ◎ uy vazifalarini bajarish va boshqalar

2024 yildagi tartibda

(2024 yil 29 aprel 136-son buyruqqa asosan):

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- hisoblash-chizma mustaqil ishini bajarish;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan masalaga aniq yechim topish va uni tahlil etish;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;

2024 yildagi tartibda:

- berilgan mavzuni chuqur o'rganish va yuqori darajada tahlil qilish;
- tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish;
- hisob-grafik-loyihalash ishlanmalarini tayyorlash;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;

Talabalar mustaqil ishini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin


- Auditoriyada amalga oshiriladigan TMI lar. O'tilgan mavzuni qayta ishlash, kengaytirish va mustaxkamlashga oid topshiriqlar bajariladi.
- Auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladigan TMI lar. O'quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil holda o'zlashtirish, uyga berilgan vazifalarni bajarish, amaliy va laborotoriya ishlariga tayyorgarlik ko'rib kelish, ijodiy va ilmiy-tadqiqot harakteridagi ishlar va x.o

Mustaqil ish topshiriqlari muvaffaqiyatli amalga oshirlishi uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim:

- ① **maqsad** (bilimni mustahkamlash, yangi bilimlarni o'zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va x.k.), aniq asoslanishi;
- ② **vazifa va topshiriqlarning aniq-ravshan belgilanishi;**
- ③ **topshiriqlarni bajarish algoritmi va metodlaridan talabalarning yetarli darajada habardor bo'lishi;**
- ④ **maslaxat va boshqa yordam turlarining to'g'ri belgilanishi** (yo'llanma va ko'rsatma berish, mavzuning mazmuni va mohiyatini tushuntirish, muammoli topshiriqlarni bajarish usullari bo'yicha tushuncha berish, muammoli topshiriqlarni bajarish usullari bo'yicha tushuncha berish, ayrim muammoli momentlarni birgalikda hal qilish va x.k.);

- hisobot shakli va baxolash mezonini aniq bo'lishi;
- nazorat vaqti, shakli va turlarini aniq belgilab olish (amaliy seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, konsultatsiya uchun yoki nazorat uchun maxsus ajratilgan vaqt; ma'ruza yoki referat matni, nazorat ishlari, uy vazifasi daftari, kurs ishlari, test, maqola, nostandart topshiriqlar, savollar, maqola, ko'rgazmali jixozlar va ijodiy ishlar; savol-javob, bajarilgan ish mazmuni va mohiyatini tushuntirib berish, yozma shaklda bayon qilish va x.k.).

Fanlardan o'quv materiallarini kompleks loyihalashtirish tartibi



TMI topshiruqlari

Nazariy kurs
bo'yicha

Amaliy
mashg'ulotlar
bo'yicha

Laboratoriya
ishiga tayorgarlik
ko'rish

**Mustaqil ish
topshiriqlari**

Qo'shimcha manbaladan,
internetdan ayrim mavzuga
oid axborotlarni topish,
toplash, taxlil qiliash.

Masala va mashqlar
ishlash, kuzatish va
tajribalar o'tkazish, uy
vazifalarini bajarish va
h.o

Adabiyotlardan
mavzuga doir
ma'lumotlarni o'rganish

Mavzuga oid
topshiriqlarni
bajarish

Mustaqil ish topshiriqlarni bajarish yezasidan metodik ko'rsatmalar

Odam anatomiyasi fani MT soatini taqsimlanishi

Mustaqil ta'lim (MT)		
1	Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va uy ishlarini bajarish.	60 soat
2	Ichki sekresiya bezlari va ularning gormonlari, Terini tuzilishi va funksiyasi, Organizm immum sietemasi.	20 soat
3	Odam evalutsiyasi, dastlabki odamlar, Skelet tizimi filogenezi va buzilishlari, Hazim tizimi filogenezi va buzilishlari.	20 soat
4	Nafas tizimi filogenezi va buzilishlari, Endokrin tizimi filogenezi va buzilishlari.	20 soat

Taklif etiladi:

- JN- 15+ 15 TMI = 40
- ON 10+10 TMI 20
- YaN 40
- JN+ON 30 ball olmagan talaba YaN ga qo'yilmaydi.
- Har bir talabaga 1 ball ajratiladi.
(amaliyot o'qituvchisiga 0.5 ball va maruzachiga 0.5 ball).

**Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda
quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:**

Talabaning kreditlarni to'plash tartibi

Talabala joriy, oraliq nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi, Yakuniy nazoratni muvafaqiyatli topshirishi lozim. To'plangan reyting ballari asosida talabaning bahosi aniqlanadi.

№	Baholash turi	Topshiriqlar turi	Topshiriqlar soni	Har bir topshiriq uchun ajratilgan ball	Jami ball	Joriy, oraliq va yakuniy baholash uchun jami ball	Joriy, oraliq va yakuniy baholash uchun saralash bali	
							Ball	Baho
1	Joriy baholash	Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari topshiriqlari	15	2	30	40	0-23	2
		Mustaqil ish topshiriqlari	4	2.5	10		24-27	3
		Yozma ish (test)	0	0	0		28-35	4
							36-40	5
2	Oraliq baholash	Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari topshiriqlari	0	0	0	20	0-11	2
		Mustaqil ish topshiriqlari	4	2.5	10		12-13	3
							14-17	4
	Jami	Yozma ish (test)	2	5	10	60	18-20	5
3	Yakuniy baholash				60		0-23	2
		Yozma ish yoki test shaklida o'tkaziladi	Yozma ish bo'lsa 4 ta savol (test shaklida bo'lsa	10	40		24-27	3
							28-35	4
	Jami				100	40	36-40	5
					100	100		

Izoh: Joriy va Oraliq baholashda jami 36 baldan past (2 baho) olgan talaba yakuniy baholashga kiritilmaydi.

Baholash turlari	Maks. ball	Bajariladigan topshiriqlar	Bajarish muddati
Amaliy mashg'ulotlar + TMI	30 (2x15=30)	Amaliy mashg'ulotlarga tayorgarik ko'rish va TMI nibasssjarish	mashg'ulot yakunida
2 ta mustaqil ish	10 (5x2=10)	TMI topshirig'inui bajarish	30.11.24. soat 18.00 gacha
2ta mustaqil ish	10 (5x2=10)	Loyiha tayorlash va himoya qilish	25.12.24 soat 18 gacha
ON	10	Taqdimot shaklida (kichik guruhda)	3 - 15 dekabr 2024 yil
YaN	40	Test	18-20.01.25 yil
Jami	100		

TMI topshiriqlaridan namunalar:

№	Botanika faniga oid «O'simliklar ko'payishi» mavzusi buyicha qo'yidagi savollarga javob berihg	<i>Bildirilgan javob, fikr, qarashlar</i>	<i>Inkor etuvchi fikrlar</i>
1	Botanika fanida o'simliklar olamida jinsiy ko'payish yetakchi rolini egallaydi degan qarashga shaxsiy munosabatingiz qanday?	ijobiy, haqiqatdan ham etakchi	
2	Xlorella va ulotriks suv o'tlarining hayotiy tsiklida o'xshashlik jihatlari ko'proqmi yoki farqli jihatlari? Fikringizni asoslang.	o'xshashlik jihatlari ko'proq: 1)....	
3	Tuban o'simliklar ko'payishida jinssiz ko'payish asosiy o'rinda turadi degan tushincha mavjud. Bu qarashga munosabatingiz?		
4	O'simliklarni klonlash orqali ko'paytirishning qanday ijobiy va salbiy jihatlari bo'lishi mumkin? O'z fikringizni asoslang.		

TMI topshiriqlaridan namunalar:

“O’simliklar ko’payishi” mavzuga oid 10 ta asosiy tushinchani izohini jadvalga qayd eting

<i>№</i>	<i>Asosiy tushunchalar</i>	<i>Asosiy tushinchalar izohi</i>
1	<i>Ko’payish</i>	O’simlik individlari soni ortishi
2	<i>Nasl qoldirish</i>	Organizmni o’ziga o’xshash individlarni yaratishi
3		
....		
10		

TMI topshiriqlaridan namunalar:

<i>Mikro - guruxlar</i>	<i>Topshiriq:</i> O'simliklar ko'payishi" mavzusiga oid quyidagi savollar buyicha taqdimotlar tayyorlash
1	O'simliklarning generativ ko'payishi asosiy jixatlari izoxlang.
2	O'simliklarning jinssiz ko'payishi asosiy jixatlari izoxlang.
3	O'simliklarning tabiiy vegetativ ko'payishi asosiy jixatlari izoxlang
4	O'simliklarni sun'iy vegetativ ko'paytirishning asosiy jihatlarini izoxlang.
5	O'simliklarni " <i>in vitro</i> " metodi yordamida ko'paytirishning asosiy jixatlarini izoxlang.

Xulosalar:

Mustaqil ta'lim - ijodiy fikrlovchi, raqobatbardosh, yetuk kadrlar tayyorlashning o'ziga xos asosi sanaladi;

Mustaqil ishlash jarayonida talaba o'zini sinab ko'radi, baholaydi hamda tahlil qiladi. Unda o'z-o'zini boshqarish va mustaqil fikrlash ko'nikmasi shakllanadi.

Mustaqil ta'lim – zamonaviy ta'lim turi hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar:

- 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi” tug'risidagi PF-5847 son farmoni. –www.lex.uz.
- 2. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar. – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limining me'yoriy xujjatlari. – Toshkent, 2001. – B. 14-15.
- 3. Karshibaev X.K. Oliy ta'limda biologiya fanidan o'quv mashg'ulotlarini kompleks loyihalashtirish // Ta'lim muammolari, 2008. № 3-4. - B. 4-9.
- 4. Karshibaev X., Suvanov O.S., Karshibaev J.X. Mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari. - Guliston, 2011.- 60 b.
- 5. Markova A.K. Psixologiya professionalizma // M.:Prosveshenie,1996.–192 s.

Mavzuga oid adabiyotlar:

- 6. Tojiev M., Karshibaev X.K. Malakali mutaxassislar tayyorlashda elektron ta'lim resuslarning roli // Universitet axborotnomasi, 2016. № 3.- B. 58-60.
- 7. Usmonov B.I., Habibullaev R.A.. Oliy ta'lim yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimda tashkil qilish"- Toshkent, 2020. - 120 b.
- 8. Xodjiev M. T., Eshnazarov D. A. Oliy ta'lim muassasalari texnika yo'nalishi bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari // Universitet axborotnomasi, 2020. N 3. - S. 3-12.
- 9. Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha yo'riqnoma.- Guliston, 2009. - 15 b.

Mavzuga oid adabiyotlar:

- 10. Karshibaev X.K., Umurzakova D. Mutaxasis kompetentligini shakllantirishda mustaqil ta'limning roli // GulDU axborotnomasi, 2013. № 2. - B.67-72.
- 11. Qarshiboev H.Q., Suvonov O.S., Qarshiboev J.H. Umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan muammoli topshiriqlarni tayyorlash va talabalar mustaqil ishlarida foydalanish bo'yicha ayrim tavsiyalar . – Guliston, 2009. – 15 b.
- 12. Abdalova S. Talabaning o'quv faoliyatida mustaqil ishning o'rni va ahamiyati // Ta'lim muammolari, 2008. № 1. - B. 70-71.
- 13. Tolipova J. Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish // Xalq ta'limi, 2016. № 4. - B. 102-103.
- 14. Boltaeva M., Dadamirzaev F. Mustaqil ta'limni shakllantirishning metodogik asoslari // Ta'lim muammolari, 2008. № 1. - B. 78-79.

E'tiboringiz uchun
raxmat !